



Mamasharipova Shahloxon

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning qadimgi shahri Xivaning tarixi, madaniyati va me'moriy yodgorliklari haqida so'zlab beradi. Maqolada Xiva paydo bo'lishi haqidagi afsonalar hamda tarixiy manbalarda uning qay tarzda eslatib o'tilgani yoritilgan. Shuningdek, Xiva shahrining Xiva xonligi poytaxti sifatidagi ro'li va uning "Ming gumbaz shahari" nomi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan..

Annotatsiya: This article will tell you about the history, culture and architectural monuments of the ancient city of Khiva in Uzbekistan. The article will cover the legends about the emergence of Khiva and how it is mentioned in historical sources. It will also provide information about the role of Khiva as the capital of the Khiva Khanate and its name "City of a Thousand Domes".


Annotatsiya: В этой статье рассказывается об истории, культуре и архитектурных памятниках древнего города Хивы в Узбекистане. В статье рассматриваются легенды о возникновении Хивы и её упоминания в исторических источниках. Также даются сведения о роли Хивы как столицы Хивинского ханства и её названии «Город тысячи куполов».

V etoy stat'ye rasskazyvayetsya ob istorii, kul'ture i arkhitekturnykh pamyatnikakh drevnego goroda Khivy v Uzbekistane. V stat'ye rassmatrivayutsya legendy o vozniknovenii Khivy i yeyo upominaniya v istoricheskikh istochnikakh. Takzhe dayutsya svedeniya o roli Khivy kak stolitsy Khivinskogo khanstva i yeyo nazvanii «Gorod tysyachi kupolov».

Kalit so'zlar: Xiva, Kat, afsona, mo'g'ullar, Muhammad Xorazmshoh, Amir Temur, SHayboniyxon, "Ming gumbaz shahri", Husayn So'fi, Urganch, YUNESKO.

Kirish. Arxeologik manbalar bugungi kunda yurtimizning har bir viloyatida mavjud. Ko'han qal'alar diyori deb atalmish Xorazm vohasi ham bunday, tarixiy va arxeologik yodgorliklar ko'plab uchraydi. Xorazm xalqi tarixi qadimgi davr bilan bog'lanadi. Xorazm viloyati ham ko'hna tarixi bilan mashhur hududlardan biri hisoblanadi. Xiva — O'zbekistonning eng qadimiy va betakror shaharlaridan biridir. U qadimiy Xorazm vohasida joylashgan bo'lib, asrlar davomida o'zining boy tarixi, madaniyati, me'morchiligi va ilm markazi sifatida nom qozongan. Xiva nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo tamaddunining muhim yodgorliklaridan biridir. Bu shahar o'zining "Ming gumbaz shahari" degan nomi bilan ham mashhur bo'lib, unda qadimiy masjidlar, minoralar, saroylar va madrasalar bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Xiva haqida yozilgan afsonalar, tarixiy manbalar va me'moriy obidalar bu shaharning qanchalik qadimiy va ma'naviy boyligini ko'rsatadi. Xiva qadimdan Xorazm vohasining





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuragi hisoblangan va u yerdan ko'plab mashhur olimlar, shoirlar, hunarmandlar yetishib chiqqan.

Bu hududda Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta Minor, Tosh hovli saroyi, Juma masjidi, Olloqulixon karvonsaroyi kabi o'nlab tarixiy obidalar joylashgan.

Xiva shahrining tarixi. Xiva shahri, avvaldan me'morlar tomonidan o'ylanganidek, o'ziga xoslikni saqlab qolgan oz sonli shaharlardan biridir. Xiva – bu "tirik" yodgorlik, muzey shahardir.[1. -B. 12.]

Afsonalardan biriga ko'ra, qadimiy shaharga muqaddas kitoblardagi Nuhning o'g'li Som tomonidan asos solingan. U sahro o'rtasida quduq qazishni boshlaydi. Yo'ldan o'tgan karvonlar va savdogarlar hayratlanarli darajada mazali suvni tatib ko'rishadi va "hevah", ya'ni "qanday yaxshi" deb qo'yishadi. Mana shunday qilib bu ajoyib shahar paydo bo'ladi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Xiva shahriga milloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan, shahar manzilgohlari bo'lgan. Arxeologik qazishmalar jarayonida Ichan qal'a hududida turli davrlarga oid bir necha madaniy qatlamlar aniqlangan. Arxeologlar shuningdek, ilk shahar binolari izlarini, sopol idishlar qoldiqlarining va boshqa narsalarni topishdi. Xususan, Ichan qal'aning eng quyi qatlamidan topilgan narsalar miloddan avvalgi V asrga oid deb belgilangan. Bu-2500 yil deganidir. Shunindek, Xiva o'rnidagi birinchi manzilgoh atrofida odamlar dehqonchilik shug'ullanganini ko'rsatuvchi ashyolar topilgan. Xivaga yaqinjoylashgan Xazorasp, Bozorqal'a, Xumbuztepa atroflarida ham shunga o'xshash xolatga duch kelingan.[1.-B.13]

Ulug'vor inshootlar, o'yma eshiklar va ustunlar, nihoyatda go'zal binolar – bular qadimgi yashirilgan mazmunga ega kitoblardir. Xiva o'z tarixida gullab yashnashni ham, qulashni ham boshdan kechirdi. Shahar Ahamoniylar davlati tomonidan milloddan avvalgi VI asrlarda bosib olgan.

O'rta asrlar tarixi. 305-yildan 995-yilgacha Xiva Xorazm davlatining tarkibiga kirgan. Bu davrlarda Xorazmda afrig'iyalar sulolasi hukmronlik qilar edi. 995-yilda Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtiradi va Xorazm shoh unvoniga sazovor bo'ladi. 1017-yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm 1040-yilda Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar sultoni Malikshoh o'z ma'murlaridan Anushteginni noib etib tayinlaydi. Anushteginning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097-1127) noiblik qilgan. U "Xorazmshoh" unvonini qayta tiklasa ham, Saljuqiylarga sodiq noib bo'lib qoladi. Uning vorisi Otsiz (1127-1156) "Xorazmshoh" unvoni bilan mamlakatni rasman boshqaradi. Xorazm davlati sulton Takash davrida mustaqillikka erishadi. [2.-B.61-60]

Shahar madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgan. Bu yerda astronomiya, matematika, kimyo va boshqa sohalarda ko'plab o'quv muassasalari va yirik ilmiy markazlar mavjud edi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xiva o'sha davrda Xorazmshohlar davlati tarkibida bo'lib, muhim savdo va madaniyat markazi edi. Davlatning poytaxti Urganch bo'lgan, ammo Xiva ham strategik jihatdan juda muhim shahar sanalgan. 1219-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshohlar davlatiga bostirib kirdi. Mo'g'ullar avval O'tror, keyin Buxoro va Samarqandni egallashdi. So'ngra ular Xorazm (Xiva, Urganch, Ko'hna Urganch) tomonga yo'l olishdi. 1220-yilda mo'g'ul lashkarlari Xivaga yetib kelishdi. Shahar aholisi qarshilik ko'rsatgan bo'lsa-da, mo'g'ullar son jihatdan ustun edi. Qisqa muddatli janglardan so'ng shahar bosib olindi. Xiva vayron qilinib, aholisi qirg'in qilindi, ko'plab madaniy yodgorliklar va inshootlar yo'q qilindi. Keyinchalik bu hudud Chig'atoy ulusi (ya'ni Chingizxonning o'g'li Chig'atoy boshqaruvi ostidagi davlat) tarkibiga kirdi. Shahar bir necha o'n yildan keyin qayta tiklana boshlanadi. Mo'g'ullar davrida Xorazm ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat bo'lgan janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysungan.[3.-B.121].

XIV asrning 60-yillarida Jo'ji ulusi (Oltin O'rda)da har xil siyosiy guruhlar orasida keskin kurashlar avj oldi. Bu holat xon Jonibekning (1357-yil) va Berdibekning (1359-yil) sirli o'limidan so'ng yanada avjiga chiqdi. Oltin O'rda davlati shu davrdan boshlab siyosiy jihatdan ancha zaiflashdi. Shundan foydalangan Xorazmning mahalliy hokimlaridan yarim mustaqil Qo'ng'iro't So'filari siyosat maydoniga chiqib keldilar. Shu vaqtdan boshlab Xorazmda Oltin O'rda xonlari nomidan tangalarni zarb qilish to'xtadi va "ismi noma'lum" chaqa-pullar chiqarila boshlandi. So'nggi marta Gurganjda Oltin O'rda xonlari nomidan tanga 1361-yilda Xizirxon nomidan chiqarilgan.

XIV asrning 60-yillarida hanuz chig'atoylar boshqarayotgan Movarounnahrda ham siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurashlar avj oldi. O'zaro nizolardan so'ng Amir Temur 1370-yilda hokimiyatni to'liq egalladi. Bulardan tashqari, shu asrning 80-yillarida Oltin O'rdaga chegaradosh davlatlar siyosiy hayotida ham katta o'zgarishlar bo'layotgan edi. Ko'chmanchilar davlatining shimolida Dmitriy Donskoy (1350–1389) boshchiligidagi rus knyazliklari Moskva atrofiga birlasha boshlagan, Movarounnahrda esa Amir Temur yangi qudratli saltanat tuzgan edi. Lekin Xorazmda Qo'ng'iro't So'filarining noo'rin harakatlari Amir Temurga ko'p tashvishlar keltirdi. Amir Temurning masalani tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan bu xatti-harakatini Sharafuddin Ali Yazdiy ham qayd etgan. "Zafarnoma"da "Xivak va Kot (zakoti) Chig'atoy ulusug'a taalluq turur va eyasi yo'q jihatdan sen olur erding. Daxl qilmag'aysen va bizga taaluq kishiga topshurg'aysenkim, do'stlug' aromizda bo'lg'ay". Lekin shundan keyin yuborilgan ikkinchi elchi Shayxulislom Jamoladdin Keshiyni esa Husayn So'fi "qal'aga soldi" – (zindonga) tashladi. Bu Amir Temurning Xorazmga urush boshlashiga olib kelgan. Achinarli tomoni, qadimdan boshlab "elchiga o'lim yo'q", degan aqida amal qilgan bo'lsa-da, ko'pchilik hukmdorlar shu tartibga rioya qilishmagan.. Husayn So'fining Amir Temur elchisiga munosabati adolatsizlikdan boshqa narsa emas edi. Ilgariroq Alouddin Muhammad Xorazmshohning elchilarni ketma-ket qatl etishi mo'g'ullarning yurishiga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

turtki bo'lib, butun boshli bir ulkan saltanatning qulashiga olib kelgan edi. Ammo tarixdan saboq olgan, undan xulosa chiqargan hukmdorlar juda ham kam uchraydi.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilinganidek, Sohibqiron 1372–1388-yillar oralig'ida Xorazmga besh marta yurish qildi, Gurganjni bosib oldi va So'filar sulolasi bu yerda tugatildi. Poytaxt–shahar vayron qilindi, ko'plab olimlar, hunarmandlar Movarounnahrda ko'chirildi. Bu o'rinda ham Husayn So'fining sarkashligi, vaziyatga aql ko'zi bilan baho berishdagi xatosi, manmanligi va elchiga nisbatan shafqatsiz munosabati, oxir-oqibat, butun bir sulolaning faoliyatiga xotima yasab, hokimiyat uzangisining boy berilishiga olib keldi.

Yangi tarix. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xorazm hududlarida siyosiy parokandalik hukm surardi. Temuriylar davlati zaiflashgan, markaziy hokimiyat parchalanib ketgan edi. Ana shu sharoitda Shayboniylar sulolasi kuchayib, yangi davlat tuzishni maqsad qilgan.

Shayboniixon (Muhammad Shayboniixon) Movarounnahrni birlashtirgach, Xorazm ustidan ham o'z hokimiyatini o'rnatmoqchi bo'ldi. Xorazm iqtisodiy jihatdan boy, strategik ahamiyatga ega hudud edi. U yerda Shayboniylarga raqib kuchlar (asosan, mahalliy amirlar va turkman urug'lari) mavjud edi. Shayboniixon Xorazmga yaqinlashgach, ayrim mahalliy zodagonlar unga bo'ysundi.

Toshkentga mustahkam o'rnashib olgan Shayboniixon ukasi Maxmud Sulton boshchiligidagi katta qo'shinni Xorazmga yubordi. Xorazmdagi Kat va Buldumsoz qal'alarini eglagandan so'ng bu yerdagi axolini majburan Buxoroga ko'chirishga buyruq berdi. Maxmud Sulton. 1505-yili o'n oylik qamaldan so'ng ko'chmanchi o'zbeklar Urganch shahrini egladilar. Bu yurish natijasida Shayboniixon butun Movarounnahr va Xorazmni o'z hukmronligi ostiga birlashtirdi. Xorazmda Shayboniylar tomonidan noiblar (vakillar) tayinlandi. Shu tariqa Xorazmda siyosiy barqarorlik vaqtincha tiklandi.

Eng hashamatli ulug'vor binolarning qurilishi XVIII va XX asr boshlariga to'g'ri keldi. O'shanda Xiva Qo'ng'irotlar sulolasi boshqaruvi ostida edi. 1763-yilda Xorazmda hokimiyatga qo'ng'irotlar urug'ining yorqin vakili Muhammad Amin keldi. Uning qo'li ostida Xiva qisqa vaqt ichida O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylandi. Uning sharofati bilan dunyo ko'pgina qayta tiklangan binolarni, jumladan Ichan-Qal'aning devorlari va minoralari hamda mashhur. 1990-yildan boshlab esa Ichan qal'a YUNESKO tomonidan jaxon ahamiyatiga molik tarixiy obida sifatida etirof etildi.

XIX asrning o'rtalarida Olloqulixonning tashabbusi bilan Dishan-Qal'aning mudofaa doirasi qurilgan. Shunday qilib, Xiva o'zida ikkita shahar: tashqi Dishan-Qal'a va ichki Ichan-Qal'ani birlashtiradi. 1873-yilda Xiva rus qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. Xivaning barcha me'moriy yodgorliklari saqlab qolingana. Bu mintaqada butunligicha saqlanib qolgan yadonga nodir obida shahardir. Endi bu ajoyib shahar YUNESKO himoyasidadir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa. Xiva shahri — O‘zbekiston tarixining yuragi, ming yillik sivilizatsiya va madaniyatning bebaho guvohidir. Bu shahar asrlar davomida o‘zining noyob me‘moriy qiyofasi, qadimiy inshootlari va boy madaniy merosi bilan dunyo e‘tiborini qozongan. Xiva qadimda Buyuk Ipak yo‘lining muhim bekatlaridan biri bo‘lib, bu yerda savdo, ilm-fan va san‘at ravnaq topgan. Shahar devorlari orasida qad ko‘targan madrasalar, masjidlar, minoralar va saroylar xalqimizning bebaho mehnati hamda yuksak estetik didini aks ettiradi. Har bir g‘ishtida tarix, har bir ko‘chasi va guzarida ajdodlarimizning izlari bor. Ayniqsa Ichon-qal‘a — Xivaning yuragi, unda minglab yillar davomida yaratilgan me‘moriy obidalar jamlangan. Bu maskan o‘zining go‘zalligi va tarixiy ahamiyati sababli YUNESCONing Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Xiva — bu faqat bir shahar emas, balki o‘zida butun Xorazm tarixini, ajdodlar zakovatini va milliy qadriyatlarimizni mujassam etgan bebaho durdona. Bugungi kunda ham Xiva o‘zining tarixiy siymosini saqlagan holda zamonaviylik sari qadam qo‘ymoqda. Shaharni ziyorat qilgan har bir kishi bu yerda o‘tmish bilan bugunning uyg‘unligini, inson tafakkurining qudratini va madaniyatning abadiyligini his etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. I.Muqaddima, “Xiva ming gumbaz shahri”,
2. A. Muhammadjonov. “O‘zbekiston tarixi”, “SHarq” nashriyoti, Toshkent-2017 y
3. Z.Saidboboyev, “Tarixiy geografiya”, “Noshir” nashriyoti, Toshkent-2010 y
4. E.Xayitboyev, “Amir Temur va Temuriylar davridagi Xorazm madaniyatining asosiy bosqichlari”, “Innovations in Science and Technologies”, February 2024. P 45,46,47.
5. Xiva tarixi <https://uzbekistan.travel/uz/o/xiva-tarixi/>

